

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(57 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(57 KB\)](#)

# O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 fevraldagagi «O`zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida»gi 134-sonli qarori haqida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 fevraldagagi «Paxta xomashyosi va boshqoli don etishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-3574-sonli qarori ijrosini ta`minlash maqsadida Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

## QAROR QILADI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 fevraldagagi «Paxta xomashyosi va boshqoli don etishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-3574-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori bilan quyidagilar:

a) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq xo`jaligi vazirligi, O`zbekiston fermer, dehqon xo`jaliklari va tomorqa er egalari kengashi, «O`z Paxtasanoat» aktsiyadorlik jamiyatiga va «O`zdonmahsulot» aktsiyadorlik kompaniyasining;

2018 yil 1 martdan boshlab ishlab chiqaruvchilarining rentabelligi oshishini va yuqori sifatlari mahsulotlar etishtirishni rag`batlantirishni ta`minlaydigan navlar va klasslar bo`yicha paxta xomashyosi va boshqoli don xaridi yuzasidan kafolatlangan davlat narxlarini belgilash;

tuproq unumdorligi past va oxirgi 3 yil mobaynida hosildorlik gektariga 15 tsentnergacha bo`lgan erlarda paxta xomashyosiga davlat buyurtmasini joylashtirmaslik to`g`risidagi takliflari ma`qullanganligi;

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklarining takliflari asosida ushbu bandga muvofiq bo`shaydigan erlarda qishloq xo`jaligi ekinlarini, eng avvalo, ozuqa va moyli ekinlarni joylashtirish, meva-sabzavotchilik va chorvachilik loyihamini amalga oshirish to`g`risida ikki hafta muddatda Hukumat qarorini qabul qilishi topshirilganligi;

b) Quyidagilar:

Paxta xomashyosi va boshqoli don uchun uzil-kesil hisob-kitoblar hosil yig`ishtiriladigan yilning oxirigacha to`liq hajmda amalga oshirilishi;

qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarga va avtomobilarga yonilg`i quyish shoxobchalariga to`g`ridan-to`g`ri shartnomalar bo`yicha sotish uchun dizel` yoqilg`isi va EKO dizel` yoqilg`isining Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadigan yagona chakana narxlarini 2018 yil oxirigacha bo`lgan davrda amal qilishi;

mineral o`g`itlarni sotish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadigan alohida shartlar hisobga olingan holda birja savdolarida amalga oshirishi;

fermer xo`jaliklari va suv iste`molchilari uyushmalarining nasos agregatlari tomonidan iste`mol qilinadigan elektr energiyasi qiymati O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadigan tartibda Davlat byudjetidan subsidiyalar hisobiga qoplanishi belgilab qo`ylganligi;

v) Paxta xomashyosi va boshqoli don etishtiruvchi fermer xo`jaliklarining xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar oldidagi 2018 yil 1 yanvardagi holatiga ko`ra hosil bo`lgan qarzlarini, shu jumladan, ichki tarmoq qarzdorligi hamda byudjet va davlat maqsadli jamg`armalari oldidagi qarzlarini to`lash muddati hisoblangan penya va jarimalar hisobdan chiqarilgan holda 3 yil muddatga uzaytirilganligi;

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga paxta xomashyosi

va boshqoli don etishtiradigan fermer xo`jaliklarining byudjet, davlat maqsadli jamg`armalari, xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlar oldidagi 2018 yil 1 yanvardagi holatiga ko`ra hosil bo`lgan qarzlarini, shu jumladan, ichki tarmoq qarzlarini bir oy muddatda yalpi xatlovdan o`tkazilishini, shuningdek, uni tartibga solish bo`yicha tegishli chora-tadbirlar ko`rilishini ta`minlash topshirilganligi;

g) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq xo`jaligi vazirligining;

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo`jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg`armasini Qishloq xo`jaligini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash jamg`armasiga (keyingi o`rinlarda Jamg`arma deb ataladi) aylantirish va uni O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasarrufiga berish;

paxta tolasiga jahon narxlarining keskin pasayishi ehtimoli uchun paxta tolasiga preyskurator va jahon narxlarini o`rtasidagi ijobjiy tafovut summasi hisobiga Jamg`armaning sug`urta hisob raqamini shakillantirish to`g`risidagi taklifiya rozilik berilganligi;

d) Qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarga mineral o`g`itlar sotuvchi korxonalar uchun 2019 yil 1 yanvargacha bo`lgan muddatda yagona soliq to`lovi stavkasi 2 foiz miqdorda belgilanganligi;

e) Tadbirkorlik sub`ektlari, shu jumladan, qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtiruvchilar tomonidan olib kelinadigan fosforli o`g`itlar, shuningdek, fosforli o`g`itlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan fosforit xomashyo 2021 yil 1 yanvargacha bo`lgan muddatda bojxona to`lovlaridan ozod qilinishi, bojxona rasmiylashtiruvchi yig`imlari bundan mustasno ekanligi;

j) O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga bir hafta muddatda;

«Agrobank» ATBga davlat xaridlarining nazarda tutilgan hajmlaridan ortiqcha boshqoli don etishtiruvchi fermer xo`jaliklariga kreditlar ajratish uchun yillik 5 foiz stavka bo`yicha depozitga 150 mlrd. so`m miqdorida yillik 10 foizgacha stavka bo`yicha mablag`lar joylashtirilishini;

Qoraqalpog`iston Respublikasi byudjetida va viloyatlarning mahalliy byudjetida past hosilli erlarda paxta xomashyosi etishtiruvchi fermer xo`jaliklarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash uchun zararkunandalarga qarshi kurashish hamda favqulodda vaziyatlarda hosilning saqlanishi bo`yicha xarajatlarni qoplashga respublika byudjetida nazarda tutilgan mablag`lar hisobiga 100 mlrd. so`m miqdorida mablag`lar shakllantirilishini ta`minlash topshirilganligi;

z) Qishloq xo`jaligi vazirligiga Suv xo`jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o`zgartirish va qo`shimchalar yuzasidan ikki hafta muddatda takliflar kiritish topshirilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tumanlar hokimliklarining takliflari asosida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarorining 1-bandiga muvofiq bo`shaydigan erlarda qishloq xo`jaligi ekinlarini, eng avvalo, ozuqa va moyli ekinlarni joylashtirish, meva-sabzavotchilik va chorvachilik loyihamonini amalga oshirish to`g`risida bir hafta muddatda Vazirlar Kengashiga qaror loyhasini kirtsin.

4. Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi Moliya vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining tegishli hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o`zgartirish va qo`shimchalar yuzasidan ikki hafta muddatda takliflar kirtsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rnbosari S.J.Xojametov zimmasiga yuklatilsin.

### **Qoraqalpog`iston Respublikasi**

**Vazirlar Kengashining Raisi**

**Q.Sariev**

Ko'rib chiqildi:

 

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar Respublika mehmonlariga Elektron hukumat Interaktiv davlat xizmatlar](#)